

BOLALARNI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIGA QABUL QILISH TARTIBI

Bo'ka tuman adliya bo'limi boshlig'i
Sh.Malikov

Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-martdagi 244-son [qaroriga](#) asosan tartibga solinadi. Bunda xizmatdan foydalanuvchi jismoniy shaxslar yani ota-onalar, ularning o'rnini bosuvchi shaxslar (farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar), bolalarning yaqin qarindoshlari (bobosi, buvisi, voyaga yetgan akasi yoki opasi) yoki uchinchi shaxslar yo'llanmalar olish uchun davlat xizmatlari markazlariga o'zlari kelib murojaat qiladi yoki yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ([my.gov.uz](#)) da ro'yxatdan o'tadi. Davlat xizmatidan kompleks tarzda foydalanish uchun FHDY organiga tug'ilishni qayd etish bilan bir vaqtda murojaat qilishlari ham mumkin.

Ariza beruvchi so'rovnoma to'ldirilib, avtomatik ravishda maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimiga yuboriladi va tegishli tashkilot va guruhda bo'sh o'rin bo'lganda – yo'llanma shakllantiriladi, bo'sh o'rin bo'lmaganda – so'rovnoma tegishli umumiy yoki imtiyozli ro'yxatga kiritiladi hamda xabarnoma shakllantiriladi.

Bolalarning quyidagi kontingenti so'rovnomalari imtiyozli ro'yxatga kiritiladi:

I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning bolalari;
Ko'p bolali oilalarning bolalari;
Yetim bolalar yoki ota-onasining qarovsiz qolgan bolalar;
“ayollar daftari”ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj yolg'iz ayollarning bolalari;

Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarning va ichki ishlar organlari xodimlarining bolalari;

Talabalar va pedagoglarning bolalari;

Akalari yoki opalari ushbu muassasaning tarbiyalanuvchilari jumlasidan bo'lgan bolalar;

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlardan umumiy turdagi maktabgacha tashkilotlarga o'tkazilayotgan sog'aygan bolalar.

Bolalarni imtiyozli ro'yxat bo'yicha qabul qilish davlat-xususiy sheriklikka asoslangan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tatbiq etilmaydi. Ariza beruvchi bolalarni tashkilotga qabul qilishni yo'llanma shakllangandan so'ng 15 ish

kuni mobaynida rasmiylashtirmagan taqdirda, yo'llanma haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Bolalarni davlat MTMga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan nizom va hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi. Qabul jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Ariza berish va navbatga turish

Davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga qabul elektron tizim orqali amalga oshiriladi. Ota-onalar yoki vasiylar Davlat xizmatlari markazi yoki my.gov.uz portali orqali farzandini ro'yxatdan o'tkazib, navbatga qo'yishi mumkin.

Hujjatlarni topshirish

MTMga qabul qilish uchun quyidagi hujjatlar talab etiladi:

Bolaning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasi (nusxasi);

Ota-ona (yoki qonuniy vakil) pasporti nusxasi;

Bolaning tibbiy ma'lumotnomasi (026/u shakli);

Imtiyozli toifaga mansub bo'lsa, tegishli tasdiqlovchi hujjatlar.

Qabul qilish tartibi

Bolalar davlat bog'chalariga odatda 3 yoshdan boshlab qabul qilinadi. Navbatda turgan bolalar soni va bo'sh joy mavjudligiga qarab, ularning bog'chaga qabul qilinishi amalga oshiriladi. Ayrim hollarda 2 yoshdan boshlab maxsus guruhlarga qabul qilinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-martdagi 244-son "Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida" qarori;
2. O'zbekiston Respublikasi 23.09.2020 yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.07.2019 yildagi "Maktabgacha ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomi